



## BUGUNGI KUNDA SURDOTARJIMONLARGA YARATILAYOTGAN KENG IMKONIYATLAR

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.127>

*Bo‘ronova Suxsora Behzodjon qizi*

*Qo‘qon davlat universiteti talabasi*

*uzlatanfos@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada surdotarjimonlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hamda davlat siyosatida bu sohaning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, surdo tarjimonlarning ta‘lim, tibbiyot, huquqiy himoya va axborot makonidagi faoliyati tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar :** surdotarjimon, eshitish nogironligi, imkoniyati cheklangan shaxslar, ta‘lim, ijtimoiy integratsiya, inson huquqlari

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются роль и значение сурдопереводчиков в жизни общества, возможности, создаваемые для поддержки их деятельности, а также приоритетные направления государственной политики в этой сфере. Кроме того, анализируется деятельность сурдопереводчиков в образовании, медицине, правовой защите и информационном пространстве.

**Ключевые слова:** сурдопереводчик, нарушение слуха, лица с ограниченными возможностями, образование, социальная интеграция, права человека

**Abstract.** This article examines the role and importance of sign language interpreters in social life, the opportunities created to support their activities, and the priority directions of state policy in this field. The paper also analyzes the work of sign language interpreters in education, healthcare, legal protection, and the information sphere.

**Keywords:** sign language interpreter, hearing impairment, persons with disabilities, education, social integration, human rights.

**KIRISH.** Bugungi kunda inson huquqlarini ta‘minlash va imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, eshitish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan insonlarning ta‘lim olishi, mehnat qilishi, huquqiy himoya topishi va madaniy hayotda faol bo‘lishi uchun qulay sharoitlar yaratish dolzarb masalalardan biridir. Surdo tarjimonlarning

faoliyati bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Ular eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslar bilan jamiyat o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarib, insonlarning huquqlarini amalga oshirishda muhim yordamchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, bugungi kunda surdo tarjimonlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va keng imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

### **Asosiy qism**

Surdotarjimon — bu shunchaki tarjimon emas, balki ikki olam o‘rtasidagi ko‘prik. U sukut bilan so‘zlashuvchi insonlarning yurakdagi fikrini jamiyatga yetkazadi, eshitilmagan ovozlarga shakl, ma‘no va hayot baxsh etadi. Surdotarjimon qo‘llari orqali muloqot yaratadi, nigohlar orqali tushuncha barpo etadi va jamiyatda tenglik tamoyilining amalga qaror topishiga xizmat qiladi. Uning mehnati inson qadr-qimmatini ta‘minlash, huquq va imkoniyatlar tengligini qaror toptirish yo‘lidagi fidokorona xizmatdir. Surdotarjimon bu sabr, mas‘uliyat va yuksak insoniylik timsolidir. U har bir imo-ishorada nafaqat so‘zni, balki tuyg‘uni, ohangni va mazmunni ham tarjima qiladi. Shu bois surdotarjimonning faoliyati jamiyatning ma‘naviy yetukligi va inklyuziv madaniyat darajasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichdir. U insonlar o‘rtasidagi to‘siqlarni yo‘qotib, muloqotni imkoniyatga, sukutni esa anglashga aylantiruvchi noyob kasb egasidir.

Jahonda surdotarjimonlarga ehtiyoji bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta‘minlash va inklyuziv jamiyatni rivojlantirishning muhim kasbiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ko‘plab rivojlangan davlatlarda imo-ishora tili rasmiy yoki yarim rasmiy maqomga ega bo‘lib, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sud-huquq tizimi, ommaviy axborot vositalari hamda davlat xizmatlarida surdotarjimon ishtiroki qonuniy majburiyat sifatida belgilangan. Natijada surdotarjimonlar uchun ish bozorida barqaror talab shakllangan, ularning kasbiy faoliyati aniq standartlar va professional sertifikatlash tizimi orqali tartibga solinadi. Xalqaro amaliyotda surdotarjimonlar muntazam ravishda malaka oshiradi va bu ularning mehnat bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek, masofaviy tarjimonlik texnologiyalari rivojlanib, surdotarjimonlarga xalqaro miqyosda onlayn ishlash, konferensiyalar va rasmiy tadbirlarda ishtirok etish imkoniyati yaratilgan. Bunday sharoitda surdotarjimonlik yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega, nisbatan barqaror va obro‘li kasb sifatida qaraladi.

O‘zbekistonda esa surdotarjimonlik sohasi so‘nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichiga kirib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktabrdagi PQ-407-sonli “O‘zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu sohada muhim burilish yasadi. Mazkur qaror bilan o‘zbek imo-ishora tilini rivojlantirish, uning ilmiy va metodik asoslarini yaratish hamda jamiyat hayotining barcha sohalariga joriy etish vazifalari belgilandi. Qarorga muvofiq, ta‘lim muassasalarida, “Ishga marhamat” monomarkazlarida imo-ishora tilini o‘rgatish kurslari tashkil etilishi, davlat telekanallarida surdotarjima va subtitrlar ulushini oshirish, shuningdek, surdotarjimonlar faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish ko‘zda tutilgan. PQ-407-sonli qaror surdotarjimonlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ularning

kasbiy faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Qarorda pedagog kadrlar va mutaxassislarining imo-ishora tilini bilishi majburiyligi belgilanishi, maxsus tanlovlar va rag‘batlantirish choralari joriy etilishi O‘zbekistonda surdotarjimonlik kasbining nufuzi oshishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohada hali to‘liq shakllangan professional standartlar va xalqaro darajada tan olinadigan sertifikatlash tizimi mavjud emasligi, ish bozorining asosan davlat sektori bilan cheklanganligi muayyan muammolar sifatida saqlanib qolmoqda.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, jahonda surdotarjimonlar uchun imkoniyatlar tizimli va keng qamrovli bo‘lib, kasb mustahkam huquqiy va institutsional asosga ega. O‘zbekistonda esa PQ-407-sonli qaror asosida surdotarjimonlik sohasi jadal rivojlanish bosqichiga kirgan bo‘lsa-da, u hali ham shakllanish jarayonida. Biroq amalga oshirilayotgan islohotlar, ta‘lim va axborot sohasidagi yangiliklar hamda davlat tomonidan berilayotgan e‘tibor kelgusida surdotarjimonlar uchun imkoniyatlar kengayishiga, mazkur kasbning jamiyatdagi ahamiyati va mavqeining oshishiga xizmat qiladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosati kuchayib, davlat idoralari, sud jarayonlari va fuqarolar bilan ishlash tizimida imo-ishora tilidan foydalanish zarurati tobora ortmoqda. Bu holat surdotarjimonlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirib, yangi ish imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, maxsus ta‘lim muassasalari va qayta tayyorlash kurslari orqali surdotarjimon kadrlarni yetishtirishga e‘tibor qaratilmoqda. Biroq amaliyotda ushbu soha hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, kasbiy standartlar, sertifikatlash tizimi va mustaqil ish bozorining rivoji cheklanganligicha qolmoqda. Xalqaro darajada tan olinadigan malaka hujjatlarining kamligi va ish imkoniyatlarining asosan davlat sektori bilan chegaralanishi surdotarjimonlarning professional o‘shishini sekinlashtirayotgan omillardan biridir. O‘zbekistonda surdotarjimonlar uchun imkoniyatlar asta-sekin kengayib borayotgan bo‘lsa, jahon tajribasi ushbu sohani yanada mukammal va professional darajada rivojlantirish uchun muhim namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Surdotarjimonlarning jamiyatdagi o‘rni beqiyosdir. Ularning xizmatlari tufayli eshitishida nuqsoni bo‘lgan fuqarolar davlat idoralarida, ta‘lim muassasalarida, sog‘liqni saqlash tizimida va turli ijtimoiy tadbirlarda o‘z fikrlarini erkin bayon qilish, huquqlarini himoya qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, ta‘lim tizimida surdotarjimonlar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilim olish jarayonida asosiy vositachilardan biri bo‘lib, ularning darslarni to‘liq tushunishiga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasida surdotarjimonlarga bo‘lgan e‘tibor so‘nggi yillarda sezilarli darajada kuchaydi. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi, davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va maxsus ta‘lim kurslarining tashkil etilishi ushbu sohaning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Televideniya va onlayn axborot maydonida surdo tarjimonlarning faoliyatini kengaytirish orqali eshitishida nuqsoni bor insonlar mamlakat va jahon yangiliklaridan bevosita xabardor bo‘lish imkoniga ega bo‘ldilar. Mehnat bozorida ham surdotarjimonlarning xizmatiga talab ortib bormoqda.

Sud majlislarida, davlat idoralarida, tibbiyot muassasalarida va turli ijtimoiy tadbirlarda ularning ishtiroki majburiy zaruratga aylangan. Bu esa kasbning nufuzini oshirishi bilan birga, yangi ish o‘rinlari ochilishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar rivoji surdotarjimonlik faoliyatini yengillashtiruvchi qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun‘iy intellekt asosidagi dasturlar, mobil ilovalar va onlayn platformalar eshitishida nuqsoni bor insonlarga xizmat qilsa-da, ular inson omilini to‘liq almashtira olmaydi. Chunki jonli muloqot, yuz ifodalari va imo-ishora tilidagi nozik jihatlar faqatgina surdotarjimonlar vositasida to‘laqonli ifodalanadi. Shu sababdan texnologiya va insoniy omil uyg‘unligi sohaga yangi bosqich olib kelmoqda. Surdotarjimonlarning faoliyati nafaqat ijtimoiy integratsiya, balki jamiyatda bag‘rikenglik va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning xizmatlari tufayli imkoniyati cheklangan insonlar o‘zini jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida his qiladi, madaniy, sport va ijtimoiy tadbirlarda faol qatnashadi, o‘z salohiyatini namoyon etadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda surdotarjimonlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar eshitish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta‘minlashda, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta‘minlashda beqiyos ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda bu sohada qabul qilinayotgan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar, amaliy tashabbuslar va davlat siyosati insonparvar jamiyat barpo etish yo‘lida muhim qadamlardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida surdotarjimonlarning mehnatini qadrlash, ularni rag‘batlantirish va sohaga zamonaviy innovatsiyalarni tatbiq etish orqali imkoniyati cheklangan insonlarning hayot sifati yanada yuksalishiga erishish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” – Nyu-York, 2006.
2. “Inkluziv ta‘lim va nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash bo‘yicha ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami” – Toshkent, 2021–2024. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
3. “Imo-ishora tili va surdotarjimonlik sohasiga oid maqolalar to‘plam” Kun.uz axborot portal.
4. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2020.
5. “Surdo tarjimonlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni” Karimova N. – Toshkent: Fan, 2022.
6. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” – Toshkent, 2023.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktabrdagi PQ–407-sonli “O‘zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2022.

8. O‘zbekiston Respublikasi Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.